

## Tarixi

Kafedra 1929 yilda «Oʻrta Osiyo irrigatsiya va suv xoʻjaligi instituti» («Sredne Aziatskiy institut irrigatsii i vodnogo xozyaystva» SAIIVX) tarkibida «Gidromelioratsiya ishlarini tashkil qilish va mexanizatsiyalashtirish» keyinchalik «Gidromelioratsiya ishlarini tashkil etish va texnologiyasi» nomi bilan tashkil etilgan.

1929-1945 yillarda prof. V.V. Apolosov, 1945-1966 yillarda prof. Ye.G.Pospelov, 1966-1982 yillarda prof. A.G.Ostankov, 1982-1989 yillarda dos. A.M.Valijonov, 1989-1993 yillarda dos. P.U.Aliqulov, 1993-1999 yillarda dos. N.R.Rahmatov mudirlik qilgan.

1999 yil apreldan 2004 yil sentyabrgacha kafedra faoliyatiga texnika fanlari doktori, professor Hasanov Baxriddin Baratovich, 2004-2012 yillarda dotsent Davranov Gʻ.T. rahbarlik qildi. 2012-2019 yillarda kafedra mudiri lavozimida dotsent L.X.Irmuxamedova faoliyat koʻrsatgan.

Kafedrada professorlar: Ye.F.Bulaevskiy, V.S.Shuvaev, A.G.Ostankov, dotsentlar: E.G.Travin, M.M.Shapshal, Z.I.Shvab, K.K.Shubladze, E.M.Ostrovskiy, B.B.Korjavin, A.Ya.Sayganov, katta oʻqituvchilar: A.N.Markanov, V.A.Marxlevskiy, N.V.Rahimova faoliyat koʻrsatdilar.

N.P.Kiselev, L.A.Gavrilenko, P.A.Ostankov, B.B.Xasanov uzoq yillar davomida samarali mehnat qilishdi.

Ilmiy-taqiqotlar oʻtkazish va ularning natijalarini ishlab chiqarishga tadbiiq qilish sohasida kafedrada oʻziga xos tajriba mavjud boʻlib, Katta Fargʻona kanali qurilishi va Mirzachoʻlni oʻzlashtirishdan boshlab hozirgi davrgacha kafedra professor-oʻqituvchilari oʻzlarining ilmiy yechimlarini xalq xoʻjaligiga tadbiiq qilishni davom ettirib kelmoqdalar. Professor V.F.Bulaevskiy rahbarligida Fargʻona kanalida suvning tuproqqa shimilib isrof boʻlishining oldini olish uchun uni quyma beton bilan qoplash texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Olimlar B.B.Korjavin va N.V.Marxlevskiy 1970-yillarda grunt toʻgʻonlarni Oʻzbekiston sharoitida «Gidromexanizatsiya» usuli bilan qurish texnologiyasi va uskunalarni yaratib, ishlab chiqarishga tadbiiq qilganlar. N.P.Kiselev va P.A.Ostankov beton ishlari sohasidagi ilmiy ishlari natijalarini Qarshi magistral kanali, xoʻjaliklararo kanallar va xoʻjaliklar ichki sugʻorish tarmoqlari qurilishida qoʻlladilar.

Dotsent A.Ya.Sayganov va aspirant B.B.Hasanov 1980-1986 yillarda sugʻorish va zax qochirish tarmoqlari qurilishi uchun moʻljallangan armaturasiz beton quvurlar tayyorlashning yangi texnologiyasi va uskunasi yaratib, ishlab chiqarishga tadbiiq etganlar. Professor A.G.Ostankov va assistent A.R.Muratov 1980-1990 yillarda Gidromeliorativ qurilish uchun yigʻma temir-beton buyumlarni tayyorlash texnologiyasini yaratganlar.

1991-2011 yillarda ilmiy va oʻquv-uslubiy ishlar natijalari boʻyicha kafedra professor-oʻqituvchilari tomonidan 5 ta monografiya, 4 ta darslik, 10 ta oʻquv qoʻllanma, 150 dan ortiq ilmiy maqola, 12 taga yaqin ixtiro-patentlar, 10 dan ortiq tavsiyalar va informatsiya bukletlari, 50 dan ortiq metodik koʻrsatmalar chop etildi.

---

[Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash fakulteti Oʻqitiladigan fanlar Ilmiy ishlar Tadqiqotchilar Hamkorlar Kafedra xodimlari Toʻgaraklar Dars jadvali Aloqalar](#)